

TALABA VA PSIXOLOGIYA

*Maxmudova Munisa*

Har bir student uchun talabalik davri juda muhim hisoblanadi, chunki bu davr keyingi hayotimizni belgilab berishda katta ahamiyatga ega. K.D.Ushinskiy bu vaqtini „eng hal qiluvchi“ deb tavsiylaydi. Bu davr har bir talabandan o‘z ustida ishlashni, kelajakka oid aniq maqsadlar qo‘yishni o‘rgatadi.

Universitetga endi qadam qo‘ygan talabada albatta yangi muhitga moslashish, shahar madaniyati, yangi do‘srlar va yangi insonlar bilan uchrashish, ular bilan muomala qilish bilan ko‘plab muammolar uchrashi mumkin. Bu vaziyatda insonlarda ko‘pgina psixologik jarayonlar yuz beradi. Ularni bu vaziyatga moslashtirish va ularni bu kabi muammolardan olib chiqsa olish uchun psixologiyaga murojaat qilanadi. Bu jarayonda, albatta, o‘quvchidagi hissiyotlarni tushunadigan, unga to‘g‘ri yechim bera oladigan o‘qituvchi va guruh rahbarlari katta rol o‘ynaydi. O‘qituvchi yangi kelgan talabalarning faoliyatini mustaqil ishlarga moslashishini tezroq va samaraliroq usulda yo‘naltirishi juda muhim. Shuning uchun 1-kurs talabalariga o‘qituvchi tanlashda judayam e’tiborli bo‘lish kerak. O‘qituvchilar xoh u fan o‘qituvchisi, xoh universitet psixoligi bo‘lsin o‘quvchilarni o‘rganish jarayonida har bir talabaga alohida individual shaxs deb qarab, uning harakteri, hissiyotlari, xohish-istikclarini inobatga olishi judayam muhim. Yana shuni aytish kerakki, 1-kurs talabalarining ko‘pchiligini o‘spirinlik davridagi yigit-qizlar tashkil qiladi. O‘spirinlik davrida inson hayotda o‘z o‘rnini topishga, „men“ obrazini yaratishga, o‘zini tushunishga harakat qiladi va bu vaqtida o‘zini va atrofdagilarni tanqid qiladi. Talabaning faoliyatini tashkil qilishda uning psixologiyasi inobatga olish kerak.

G. Ananievning fikricha, 17 yoshdan 25 yoshgacha bo‘lgan hayot davri shaxsni shakllantirishning yakuniy bosqichi va professionallashtirishning asosiy bosqichi sifatida muhim ahamiyatga ega. B. G. Ananyevning so‘zlariga ko‘ra, 17 yoshga kelib, shaxs o‘z-o‘zini tarbiyalash faoliyati ko‘nikmalarini shakllantirish uchun maqbul sub‘ektiv sharoitlarni yaratadi [1].